

REFLEKSIYA VA TALABALAR METODIK TAYYORGARLIGIDA REFLEKSIV METODIKALARNING O'RNI

Shaxlo Uktamovna Nurullayeva

Qarshi DU professori, pedagogika fanlari doktori

e-mail: shaxlo.nur73@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada refleksiya va refleksiv jarayonlarning kechishi muammosining falsafiy, psixologik va pedagogik nuqtai nazardan manbalardagi tahlili o'rganilgan. Ushbu tahlillar natijasida refleksiya tushunchasiga ta'rif berilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik tayyorgarligi jarayonida refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish mazmuni, amalga oshirish bosqichlari, ahamiyatiga doir tadqiqot natijalari asosida metodik tavsiyalar va ishlanmalar bayon etilgan. Mutaxassislik fanlarini o'qitish hamda pedagogik amaliyot jarayonida talabalar metodik-refleksiv tayyorgarligini amalga oshirishga doir mashqlar, topshiriqlar tizimi, refleksiv jarayonni tashkil etish bosqichlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: talaba, pedagogik ta'lim, metodik-refleksiv tayyorgarlik, refleksiya, pedagogik amaliyot, refleksiv ko'nikma, qobiliyat, mashqlar, metodik tavsiya, tahlil.

Annotation: The article examines the analysis of the problem of reflection and the passage of reflexive processes from a philosophical, psychological and pedagogical point of view. As a result of these analyses, the concept of reflection was defined. Also described are methodological recommendations and developments based on the results of a study of the content, stages of implementation, and the importance of developing reflective skills in the process of pedagogical training of future teachers. When teaching specialized subjects and in the process of teaching practice, exercises, a system of tasks, and stages of organizing the reflective process of methodological and reflective training of students have been developed.

Key words: student, pedagogical education, methodological and reflective training, reflection, pedagogical practice, reflective skill, ability, exercises, methodological recommendations, analysis.

Kirish (Introduction). Pedagogik jarayonning samarali kechishi refleksiv faoliyatning to'g'ri tashkil etilishiga ko'p jihatdan bog'liq hisoblanadi. O'qituvchining refleksiv mahoratga ega bo'lishi ularning kelajakda:

- bajarishi lozim bo'lgan barcha o'quv, tarbiyaviy, ijtimoiy vazifalarining ko'lami va darajasini bilib olishiga;
- o'zi uchun o'quvchilarga, ota-onalarga ijobiy ma'noda ta'sir etuvchi faoliyat mexanizmini shakllantirishga;

- dars jarayonlarini tashkil etishda o'quvchilarning talablari asosida shakllana boradigan ish tajribasiga ega bo'lishiga;
- shaxsiy faoliyatini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilish asosida kamchiliklari va yutuqlarini obyektiv baholash ko'nikmalarining shakllanishiga;
- individual rivojlanish trayektoriyasini belgilash ko'nikmalarining shakllanishiga yordam beradi.

Demak, aytishimiz mumkinki, refleksiya — bu o'qituvchining o'z faoliyati va sodir etadigan o'quv, tarbiyaviy va ijtimoiy xatti-harakatlariga baho berishigina emas, balki o'zini boshqalar (o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar) qanday qabul qilayotganlarini aniqlab olish imkonini beruvchi xususiyatdir. O'z-o'zini refleksiv tahlil eta oladigan pedagog ongli ravishda takomillashib borgani barobarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarini ham mukammallashtirib boradi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review). Refleksiya muammosi bir vaqtning o'zida ham falsafa, ham pedagogika, ham psixologiya sohasida keng tadqiq etiladi. Ushbu sohalar turlicha bo'lishiga qaramasdan, refleksiyadan foydalanishning mohiyati, deyarli bir xil ko'rinishdadir. Biz dastlab refleksivlik, refleksiya va refleksiv mahorat tushunchalarining falsafa, pedagogika va psixologiya fanlarining tadqiqot obekti sifatida paydo bo'lish shart-sharoitlari hamda mazkur tushunchalarning talqinlari ustida mulohaza yuritamiz.

Refleksiya va talabalar metodik tayyorgarligida refleksiv metodikalarning o'rni haqida turli ilmiy yondashishlarni uchratish mumkin, jumladan, S.Yo'ldoshev "Boshlang'ich ta'lim talabalarini kreativ yondashuv asosida texnologik ta'limga tayyorlash metodikasi", Sh.Donayeva "Pedagogik ta'lim jarayonida refleksiv ta'lim texnologiyalarni qo'llashning asosiy tamoyillari, usul va yo'llari", Z.Qarshiyeva "Bo'lajak o'qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modeli tamoyillari" kabi ilmiy darsliklarda uchratish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Metodik-refleksiv tayyorgarlik jarayonida quyidagi shart-sharoit inobatga olinishi muhimdir:

- pedagogik amaliyot uchun tanlangan obyekt haqida umumiy ma'lumot (maktab va sinf haqida to'liq ma'lumot), sinf o'quvchilarining umumiy tavsifi (o'quvchilarning umumiy bilim darajasi, yosh psixologik xususiyatlari, o'quvchilarning individual xususiyatlari va imkoniyatlari);
- dars o'tish tanlangan predmet, mavzu, ta'limning tashkiliy shakli va uning ta'lim mazmuni hamda o'quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi;
- dars rejasi, texnologik xaritasini mukammal ishlab chiqish, vaqtni to'g'ri taqsimlash;
- ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash;

- o'qituvchining kommunikativ qobiliyatini namoyon etishi, o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki, faolligi;
- dars davomida o'qituvchining harakati, faolligi, mahorati va kompetentligi;
- o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish metodlaridan to'g'ri foydalana bilish;
- o'z faoliyatini tahlil qilish va ta'lim maqsadiga erishilganlik darajasini aniqlash;
- mashg'ulot davomida erishilgan yutuqlar va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tahlil qilish.

Tadqiqotimiz davomida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirish maqsadida mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi bo'yicha mashg'ulotlar davomida ularning kasbiy o'sishiga katta e'tibor qaratdik. Kasbiy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish - bu oliy ta'lim muassasalarida va keyinchalik o'qituvchi sifatida mustaqil pedagogik faoliyat davomida amalga oshiriladigan, uzoq davom etadigan jarayondir. Shuning uchun talabalarning pedagogik amaliyotda olib borayotgan mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoniga refleksiv munosabatini rivojlantirish va bu darslardan taassurotlardan foydalanishni belgilash o'ta muhim. Amaliyotga chiqishdan oldin metodik tavsiyalar umumiy amaliyot oldi konferensiyalarida talabalar psixologik-pedagogik sikl fanlari bo'yicha va o'qigan metodikalari bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari topshiriq sifatida beriladi:

1. Amaliyotning dastlabki haftasida metodist o'qituvchi tomonidan o'tkaziladigan darslarni kuzatish va ularni metodik jihatdan tahlil qilish.
2. Tematik reja asosida o'tilishi lozim bo'lgan darsga puxta tayyorgarlik ko'rish.
3. Nazariy metodik tayyorgarlik jarayonida o'zlashtirgan metodik bilimlari asosida tajriba va sinov darslarini tashkil etish.

4. O'zi tashkil etgan mashg'ulotni yozma metodik tahlil qilish.

Metodik tahlilni quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

1. Mashg'ulot maqsadiga to'liq erishdingizmi?
2. Rejalashtirilgan vazifalarni to'liq amalga oshira oldingizmi?
3. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi qanday bo'ldi?
4. O'quvchilarning darsdagi faolligi necha foizni tashkil etdi?
5. Siz tanlagan eng qiziqarli o'quv materialiga o'quvchilarning qiziqishi qanday bo'ldi? Nima uchun?
6. O'quvchilarga o'quv dasturidagi barcha ma'lumotlarni yetkaza oldingizmi?
7. Vaqtdan to'g'ri va unumli foydalana oldingizmi?

8. Didaktik vositalardan to'liq va samarali foydalana oldingizmi?

9. Bolalarning mustaqil ishlashi davomida o'qituvchining o'rni. Bu nimada mujassam edi? Nima uchun bu ehtiyoj paydo bo'ldi?

10. Faoliyatingizga berilgan baho: obyektiv va subyektiv baho, ularning mutanosibliigi, farqi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, birinchi darsga tayyorlanayotganda talaba hayajonlanadi. Bu odatiy hol. Bu hayajon bo'lajak o'qituvchi uchun birinchi darsga tayyorgarlik ko'rishda ham ijobiy rol o'ynaydi, chunki u talabani barcha shaxsiy sifatlarni yagona maqsadga - sifatli dars berishga qaratishga majbur qiladi. Bu esa uni adabiy manbalar va qaydlarga e'tibor berishga, o'qituvchi va metodist bilan maslahatlashishga undaydi. Talaba birinchi darsni o'tganda va darsning ham ijobiy va ham salbiy tomonlarini, ularning sabablari va kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini tahlil qilganda ko'p narsa oydinlashadi.

Pedagogik amaliyot tugagan vaqtga kelib, talabalarda kasbiy o'z-o'zini tahlil qilish san'ati o'sishining eng muhim belgilaridan biri sifatida o'z pedagogik faoliyatiga refleksiv munosabat shakllanganlik darajasini ko'rsatishimiz mumkin. Bu esa talabalarning maktabda ishlashga tayyorgarligini tekshirishni sifatli tahlil qilish, talaba tomonidan oliy ta'limdan keyingi (pedagogik amaliyotdan keyingi) mashg'ulotlar uchun vazifalar va aniq savollar belgilash imkonini beradi.

Natijalar va muhokama (Result and Discussions). Falsafa fani sohasida refleksiya falsafani o'rganish obekti sifatida talqin etiladi. Emmanuel Kant qarashlariga ko'ra, "refleksiya shaxsning o'z bilish va anglash qobiliyatini muntazam tadqiq qilishi natijasida shakllanib boradigan xususiyati bo'lib, uning darajasi insonning anglash qobiliyati va intellekt darajasiga bog'liq jarayondir" [1].

Gegel falsafasida refleksiya shunday talqin etiladi: "fikrdan fikr tug'alsa va inson bu hodisani ongli ravishda idrok etsagina o'ziga nisbatan tanqidiy va tahliliy munosabatda bo'la oladi" [2]. Faylasufning fikricha, aynan shu hodisa refleksiyani tug'diradi va xuddi shu taxlit hosil bo'lgan refleksiya ikki turga bo'linadi. Bu:

1. Nazariy refleksiya. 2. Amaliy refleksiyadir.

Nazariy refleksiya insonga insonga o'z hayotida, faoliyatida va botiniy his-tuyg'ularida paydo bo'lgan muammolarga mulohazalar yordamida yondashuvni anglatadi. Mazkur mulohazalar yordamida inson tasavvurdagi muammolarning haqiqatga qay darajada yaqinligini aniqlab oladi va shu asosda qarorlar qabul qiladi. Gegel fikricha, "nazariy refleksiya shaxsni o'zlikni anglash tushunchasiga yaqinlashtiradi va bu esa o'z navbatida hayotda uzoq muddatli strategiyani belgilashda katta ahamiyat kasb etadi".

Amaliy refleksiya – insonning mukammalilik sari intilishidir. Inson fikrlayotganini idrok etsagina fikrlayotgan bo'ladi. Hayotdagi har qanday orzu, maqsad,

mukammallikka intilishning zamirida qiziqish (motivatsiya) yotadi. Inson motivatsiyaga ega bo'lishi uchun fikrlashi va ushbu fikrlarining o'z holatiga qanchalik yaqin ekanligini mulohaza qilishi lozim bo'ladi. Xuddi shu mulohaza insonga o'z botini va amaliy faoliyatiga "sirtidan qarash" uchun sharoit yaratadi. Refleksiya ongni tahlil qiladi: inson tasavvuridagi mukammallik hayotda erishish mumkin bo'lgan mukammallik bilan farqlimi yoki tafovutsiz ekanligini mulohazalar yordamida aniqlab oladi.

Pedagogik faoliyatni tashkil etish hamda pedagogning kasbiy rivojlanish tizimida refleksiyaning o'rni muhim ekanligini inobatga olgan holda pedagogik va psixologik tadqiqotlarda refleksiyaga alohida ahamiyat beriladi.

Ko'pgina tadqiqotchilar fikrlashdagi refleksiyada insonning o'zga insonga nisbatan bo'lgan munosabati ifodalanadi deb ta'kidlaydilar. Ko'p hollarda inson o'z-o'zini refleksiv tahlilga tortar ekan, u o'zining yangi imkoniyatlari va qirralarini kashf etib boradi. Ammo zaruriy shart-sharoitlar mavjud bo'lmagani uchun mazkur imkoniyatlar yuzaga chiqmaganligini anglaydi. Inson o'z tafakkuri va tasavvurining yangi tashkil etuvchilarini anglab oladi. Bunday tashkil etuvchilarga hal etilishi ko'zda tutilgan, ammo hal etilmagan vazifalarni saralash, fikrlashda nomuhimdan muhimga intilish, atrofdagi narsa va hodisalarning yangi qirralarini anglash, mulohazalarni ramzlar vositasida olib borish kabi psixologik xususiyatlar kiradi.

Ta'lim berish va o'qitishdan iborat intellektual faoliyatni tahlil etar ekan, V.V.Davidov refleksiyani "subektning muhimni nomuhimdan ajratib olish, tahlil etish va tafakkurni o'z faoliyat turiga aylantira olish mahorati", deya ta'riflaydi [3].

I.S.Ladenko fikricha, "Refleksiyaning ijodiyliги insonning o'z-o'zini tanqidiy tahlil etish jarayonida yangi vazifalar topishi, o'sha topilgan vazifalarga tayangan holda o'z oldiga yangi strategik va qisqa fursatli maqsadlar qo'yishini ta'minlaydi hamda bu bilan tafakkurni rivojlantirish mexanizmining refleksiv mahoratni oshirish mexanizmiga mutanosib rivojlanishiga erishadi" [4].

Refleksiya tushunchasining pedagogika fani nuqtai nazaridan talqin etilishi. Demak, pedagogik nuqtai nazardan qaraganda **refleksiya** bu – subyektning o'z amaliy faoliyatini tahlil etishi va mazkur tahlil natijalari asosida o'z kasbiy iqtidorini baholashidir.

S.Yo'ldoshev bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini texnologiya fanini kreativ yondashuv asosida o'qitishga tayyorlashni ikki yo'nalishda kasbiy tayyorgarlik va kasbiy-refleksiv tayyorgarlik yo'nalishlarida amalga oshirishni tavsiya etadi.

Kasbiy-refleksiv tayyorgarlik esa bo'lajak o'qituvchilar bilan maktablarda tashkil etiladigan malakaviy amaliyotlar jarayonida amalga oshiriladi.

Biror bir jarayonni samarali yo'lga qo'yishni xohlagan har qanday shaxs o'z faoliyatini tahlil qiladi, olib borgan ishlari yuzasidan mulohaza yuritadi, ushbu

jarayondagi o'z hissasi va imkoniyatlarini tahlil qiladi. Aynan mushohada yuritishning bu turi refleksiya hisoblanadi. Demak, o'qituvchi ham o'z pedagogik faoliyatini doimo tahlil qilib borishi taqozo etiladi. Refleksiyaga tayyorgarlik esa oliy ta'lim muassasalaridagi kasbiy tayyorgarlik, xususan, pedagogik amaliyot jarayonida amalga oshirib boriladi. "Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchining pedagogik, metodik va texnologik tayyorgarligi metodist o'qituvchilar, talabalar va o'zi tomonidan tahlil qilish orqali olib boriladi"[5].

Refleksiya o'z faoliyatini yaqin kelajak va uzoq muddatli istiqbolni nazarda tutgan rejalar asosida qurishga intilgan har bir shaxs uchun zarur bo'lgan xususiyatdir.

To'laqonli pedagogik refleksiyaga tayyorgarlik payti – talabalarning pedagogik amaliyot davomida kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining texnologiya ta'limi bo'yicha sinfdagi va darsdan tashqari faoliyatlarini o'z- o'zini tahlil qilishni amalga oshirishdir.

Pedagogik amaliyot davomida talabalar mutaxassislikka oid turli faoliyat turlarini kompleks ravishda amalga oshirishlari uchun imkon beriladi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirishga, o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini tarkib toptirishga yordam beradi. Talaba tomonidan amaliyot davomida amalga oshiriladigan jonli muloqot, kuzatish va hayotiy tajribalar asosida kasbiy va kasbiy-refleksiv ko'nikmalar tarkib topa boradi. Pedagogik amaliyotning asosiy maqsadi bo'lg'usi o'qituvchilarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv-tarbiyaviy ishlarga kasbiy pedagogik va psixologik tayyorlash, ijodiy fikrlash, kasbiy mahorat va qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat.

Pedagogik amaliyot o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida quyidagi quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

- aniq pedagogik jarayonda talabalarning ijtimoiy-kasbiy faollik ko'rsata olish qobiliyatining namoyon bo'lishi;
- pedagogik jarayonga va o'z faoliyatga ijodiy faoliyatning shakllanishi;
- tabiiy pedagogik vaziyatda kasbiy refleksiv madaniyatning tarkib topishi. Bu jarayon, ya'ni shaxsiy faoliyatni tahlil qilish amaliyotchi talabaga pedagogik faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarni taxmin qilish va ulardan chiqish yo'llarini to'g'ri tanlashga o'rgatadi.
- bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik jarayonga har tomonlama yondashuv asosida nazariy va amaliy bilim, ko'nikma, kompetensiyalar bilan birgalikda tadqiqot faoiyatiga jalb etish;
- pedagogik texnologiyalar mukammal o'zlashtirish va ushbu bilimlarni pedagogik tajriba bilan integratsiyalay olish qobiliyatini shakllantirish.

Metodik-refleksiv xususiyatlar malakaviy amaliyot davomidagi o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash jarayonida shakllanib boradi. Ya'ni, malakaviy amaliyot davomida yuritiladigan asosiy ish hujjatlaridan biri bo'lmish amaliyot kundaligi o'z kunlik faoliyatini tahlil qilish va baholashning eng optimal yo'li hisoblanadi. Har bir mashg'ulot davomidagi va pedagogik muloqot jarayonidagi o'z yondashuvi, qarashlari va ishtirokini obyektiv baholash bo'lajak o'qituvchida metodik-refleksiv xususiyatlarini tarkib toptirib boradi. Buning uchun esa talabalar real pedagogik faoliyatga tayyor bo'lishlari va o'qituvchining barcha funksiyalarini bajarib ko'rishlari talab etiladi. Bo'lajak o'qituvchining bilim, ko'nikma va malakalarining tarkib topganlik darajasi, kasbiy rivojlanish ko'rsatkichlari va o'quvchilarning ijodiy faolligi o'quv jarayoni sifati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim samaradorligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Pedagogik amaliyot chog'ida kasbiy refleksiyaning rivojlantirish muhim ahamiyat ega bo'lib va uning o'ziga xos jihatlari mavjuddir.

Amaliyotchi talabalar o'zida metodik-refleksiv sifatlarni shakllantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi:

- talaba pedagogik amaliyot davrida amaliyot kundaligida o'z-o'zini tanqid qiladigan holatlarni belgilash.
- darsni kuzatish davomida o'qituvchi pedagogik refleksiyaning amalga oshirganlik darajasini aniqlash. aniqlash usullarini qayd etish.
- dars o'tkazish va o'zi o'tkazgan darsini tahlil qilish: diqqatning taqsimoti, foydalanilgan muloqot uslubi, tanlangan texnologiya va usullarning mashg'ulot mazmuniga mosligi va hokazo.
- o'tkazgan darsida kasbiy malaka va mahoratining namoyon etilganlik darajasi, yuz ifodasining o'zgartirishi.
- kasbiy refleksiyaning namoyon bo'lish jarayonini belgilash: darslardan birida; tarbiyaviy tadbirlarda; o'quvchilarning ota-onalari bilan suhbatda; hamkasblari bilan suhbatda; ustozlari bilan suhbatda; maktab amaliyoti davrida guruhdagi o'rtoqlari bilan muloqotda.

Xulosa. Psixologiya fanida refleksiya insonning o'z ichki imkoniyatlarini o'rganishi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Ya'ni, refleksiya insonning psixologik imkoniyatlarini, ichki ehtiyojlarini hamda o'z faoliyatini amalga oshirish muhimligini, tashqi muhit bilan o'zaro aloqadorlikdagi o'rnini to'g'ri baholay olish qobiliyatidir. Ya'ni *refleksiya insonning o'z ichki dunyosiga, sodir etgan xatti-harakatlariga, olgan bilim va ko'nikmalariga, kommunikativ faoliyatga nisbatan chetdan nazar sola bilish, obyektiv baholashga imkoniyatlidir.*

Bugungi kunda refleksiya insonning o'z-o'zini rivojlantirish usuli sifatida qaralib, psixologik tadqiqotlarda ham yetakchilik qiladi. Refleksiv ko'nikmalarga ega bo'lgan inson o'z xatti-harakatini, o'z faoliyatini boshqara oladi, o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qila oladi hamda o'z-o'ziga obektiv baho bera oladi. Shu bois psixologik refleksiyaning pedagogik o'ziga xosliklarini va ushbu hodisaning ta'lim jarayonidagi rolini o'rganish yetakchi soha hisoblanadi. Psixologik refleksiyaning pedagogik ahamiyatini o'rganish insonda reflektiv xususiyatlarning rivojlanish qonuniyatlari va shart-sharoitlarini, reflektiv mahoratni shakllantirib borish usullarini, ko'p o'lchamli va keng qamrovli ongni shakllantirish va jamiyat taraqqiyotida o'z o'rnini aniqlab olish kabi bilimlarni o'rganib borishning izchil hamda davomli jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Румянцева Т. Г.. Немецкий идеализм: от Канта до Гегеля. — Минск: Вышэйная школа, 2015. — 271 с.
2. Гегель. Философия права. — М.: Мир книги, 2007. — 464 с.
3. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. - М.: «Интор», 1996. - 287 с.
4. Ладенко И. С. Методологическая концепция рефлексии // Проблемы логической организации рефлексивных процессов. — Новосибирск, 1986.
5. Йўлдошев С. Бошланғич таълим талабаларини креатив ёндашув асосида технологик таълимга тайёрлаш методикаси. Пед.фан.бўйича фал.докт. диссертация. –Қарши. 2021. В-92- 144.
6. Донаева Ш.А “Педагогик таълим жараёнида рефлексив таълим технологияларни қўллашнинг асосий тамойиллари, усул ва йўллари” «Муғаллим хэм узлуксиз билимлендириў» илмийметодик журнали.- 2023.- №-2-сон.В-75-76.
7. Қаршиева З.Ш. Бўлажак ўқитувчининг рефлексив позициясини ривожлантириш модели тамойиллари. // Халқ таълими. – Тошкент, 2020. – 6-сон.- Б.49-55.
8. Nurullaeva Sh.U. Mechanisms of self-development in pedagogical activity. E- Global Congress Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference. Date: 19th February, 2023. P. 9-15.
9. Nurullaeva Sh.U. Pedagogical conflicts, ways to resolve them and positive aspects of conflicts. American Journal of Pedagogical and Educational Research. Volume 19, | December, 2023. P. 88-91.
10. Нуруллаева Ш.У. Инновацион таълим муҳитида педагогик моделлаштириш муаммолари. Тасвирий санъат таълими узвийлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари: муаммолар ва ечимлар. Халқаро илмий-амалий конференция. Қарши, 2023. Б. 10-13.